

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

*Qo‘l yozma huquqida* \_\_\_\_\_

**BOBOQULOV AKMAL MUBORAKBEKOVICH**

**IQTISODIYOTNI TRANSFORMATSIYALASH JARAYONIDA  
INVESTITSIYA FAOLIYATINI MUQOBIL MOLIYALASHTIRISH  
USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH**

**08.00.07–“Moliya, pul muomalasi va kredit”**

Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori  
(Doctor of Philosophy) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan

**DISSERTATSIYA**

**Ilmiy rahbar: i.f.d., prof. Almardanov M.**

**Toshkent-2023**

## MUNDARIJA

	<b>KIRISH</b> .....	<b>3</b>
<b>I BOB.</b>	<b>IQTISODIYOTNI TRANSFORMATSIYALASH JARAYONIDA INVESTITSIYA FAOLIYATINI MUQOBIL MOLIYALASHTIRISH USULLARINING NAZARIY-XUQUQIY ASOSLARI</b> .....	
1.1.	Investitsiya faoliyatini muqobil moliyalashtirish usullarining zarurligi va funksional elementlarining nazariy asoslari.....	13
1.2.	O‘zbekiston Respublikasida investitsiya faoliyatini muqobil moliyalashtirish usullarining normativ-huquqiy asoslari.....	19
1.3.	Mamlakatimizda investitsiya faoliyatini muqobil moliyalashtirish usullarining manbalarini shakllantirish yo‘llari .....	26
	I bob bo‘yicha xulosa.....	
<b>II BOB.</b>	<b>INVESTITSIYA FAOLIYATINI MUQOBIL MOLIYALASHTIRISH USULLARINING ZAMONAVIY HOLATI TAHLILI</b> .....	
2.1.	O‘zbekistonda investitsiya faoliyatini muqobil moliyalashtirish amaliyoti va tahlili.....	38
2.2.	Investitsiya faoliyatini muqobil moliyalashtirishda islom moliya instrumentlaridan foydalanish holati tahlili.....	48
2.3.	Investitsiya faoliyatini muqobil moliyalashtirish usullariga ta’sir etuvchi omillarning ekonometrik tahlili.....	59
	II bob bo‘yicha xulosa.....	
<b>III BOB.</b>	<b>MAMLAKATIMZDA INVESTITSIYA FAOLIYATINI MUQOBIL MOLIYALASHTIRISH USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI</b> .....	
3.1.	Investitsiya faoliyatini muqobil moliyalashtirish usullarining ilg‘or xorij tajribalarini O‘zbekistonda qo‘llash imkoniyatlari.....	72
3.2.	Iqtisodiyotni transformatsiyalash jarayonida investitsiya faoliyatini muqobil moliyalashtirish usullari bilan bog‘liq bo‘lgan muammolar.....	81
3.3.	O‘zbekistonda investitsiya faoliyatini muqobil moliyalashtirish usullarini takomillashtirish yo‘llari.....	88
	III bob bo‘yicha xulosa.....	
	<b>XULOSA VA TAKLIFLAR</b> .....	<b>99</b>
	<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI</b> .....	<b>103</b>

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon kapital bozorlarida moliyaviy shart-sharoitlarning keskinlashishi moliyalashtirish muddatlarining kechikishi va xarajatlarining oshishi xavfiga olib kelmoqda. Natijada investitsiya faolligi va o'sish istiqbollarini ta'minlash uchun zarur mablag'ning qariyb yarmi mahalliy manbalardan olinishi kutilmoqda. Jumladan, ichki kapital bozorlarini mustahkamlash, milliy rivojlanish banklaridan moliyaviy resurslarni safarbar qilish, soliq yig'ishni yaxshilash va subsidiyalarni kamaytirishga ta'sir ko'rsatmoqda. 2023 yilda to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar prognozi zaif ko'rinadi, chunki dunyo bo'ylab ko'plab iqtisodiyotlar retsessiyaga kirishi kutilmoqda. Ko'pgina mamlakatlarda salbiy yoki past darajadagi iqtisodiy o'sish, muqobil moliyalashtirish sharoitlarining yanada yomonlashishi, ko'plab inqirozlar sharoitida investorlarning noaniqligi va ayniqsa rivojlanayotgan mamlakatlarda qarz darajasi bilan bog'liq xavflarning o'sishi to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarga sezilarli darajada bosim o'tkazadi. SHunga asoslangan holda, "2030 yilga kelib tashqi muqobil moliyalashtirishga bo'lgan ehtiyoj yiliga taxminan 1 trillion dollarni tashkil etadi"<sup>1</sup>. Bu esa iqtisodiyotni transformatsiyalash jarayonida investitsiya faoliyatini muqobil moliyalashtirishni takomillashtirishni taqozo etmoqda.

Jahonning rivojlanayotgan mamlakatlarida investitsiya faoliyatini muqobil moliyalashtirish amaliyotini takomillashtirish, xususan, ularning yangi moliyalashtirish manbalaridan foydalanish darajasini oshirish, davlatlarning investitsiya faoliyatini muqobil moliyalashtirish amaliyotiga innovatsion usullarni joriy etish kabi yo'nalishidagi tadqiqotlarga ustuvor darajada ahamiyat qaratilmoqda. Xususan, mazkur mamlakatlar amaliyotida inflyasiya darajasining yuqoriligi hamda investitsion muhit jozibadorligining nisbatan pastligi, jahon moliyasi globallasuvi jarayoni va dunyo iqtisodiyoti integratsiyalashayotgan bir paytda moliyaviy resurslar shakli sifatida korxonalariga qarz kapitalini jalb qilishda yangicha shakl va usullar qo'llanilishi hamda moliyalashtirish manbalarining

---

<sup>1</sup> <https://unctad.org/publication/world-economic-situation-and-prospects-2023>

barqaror emasligi oqibatida korxonalar va tashkilotlarning investitsiya faoliyatini muqobil moliyalashtirish amaliyotiga taʼsir etayotgan salbiy jihatlarni bartaraf etish kabi yoʻnalishlardagi ilmiy tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Oʻzbekistonda olib borilayotgan faol investitsiya siyosati mamlakat milliy iqtisodiyotini istiqboldagi raqobatbardoshligini oshirishning muhim moliyaviy omili boʻlib xizmat qilmoqda. Respublikaning sanoat va ishlab chiqarish salohiyatini oshirish, iqtisodiyot tarmoqlariga yuqori texnologiyalarni keng joriy etish, toʻgʻridan-toʻgʻri xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni kengaytirish orqali hududlarda yangi ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish, eksportni rivojlantirish, aholi bandligini taʼminlash va kambagʻallikni qisqartirish, shuningdek, investitsiyalarni tizimli rejalashtirish va investitsiya loyihalarini samarali boshqarish maqsadida Oʻzbekiston Respublikasining 2022-2026 yillarga moʻljallangan Investitsiya dasturida “markazlashgan va markazlashmagan investitsiyalarni oʻzlashtirishning yigʻma maqsadli koʻrsatkichlari 2 025 200 mlrd. soʻmga etkazishni, shu jumladan 714 278 mlrd. AQSH dollari miqdoridagi toʻgʻridan-toʻgʻri xorijiy investitsiyalar va kreditlar oʻzlashtirilishining manzilli dasturi koʻrsatilgan”.<sup>2</sup> Mamlakatda amalga oshirilayotgan bunday keng koʻlamli islohotlarni va faol investitsiya siyosati samaradorligini yanada oshirish avvalo investitsiya faoliyatini rivojlangan mamlakatlar tajribasi asosida mukammal tizimli moliyalashtirish mexanizmini rivojlantirishni taqozo etmoqda. Milliy iqtisodiyotda investitsiya faoliyatini muqobil moliyalashtirish mexanizmini yanada takomillashtirish tadqiqot ishining dolzarbligini belgilaydi.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son “2022–2026 yillarga moʻljallangan yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasi toʻgʻrisida toʻgʻrisida”, 2019 yil 17 yanvardagi PF-5635-son “2017-2021 yillarda Oʻzbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yoʻnalishi boʻyicha Harakatlar strategiyasini “Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi toʻgʻrisida”, 2019 yil 8 yanvardagi PF-5614-son

---

<sup>2</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 30 декабрдаги “Ўзбекистон Республикасининг 2022-2026 йилларга мўлжалланган Инвестиция дастурини тасдиқлаш ҳамда инвестиция лойиҳаларини бошқаришнинг янги ёндашув ва механизмларини жорий этиш тўғрисида”ги ПҚ-72-сон қарори. – [www.lex.uz](http://www.lex.uz)